

O'qish darslarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil qilish metodikasi

Qutlimuratova Dinora Ravshanbek qizi.
UrDU 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalar haqida so'z boradi. Interfaol usullar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: o'quv darslari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, metodlar.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, Innovatsion texnologiyalarning o'rni va ro'li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsiya (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: -O'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

-O'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

-O'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

-Pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqodchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'lq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatni tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijobiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqa xolda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Har bir detalda o'ylangan bo'g'inning modeli ta'lim faoliyati talabalar va o'qituvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni so'zsiz ta'minlash bilan o'quv jarayonini loyihalash, tashkil etish va o'tkazish bo'yicha, ya'ni ta'lim jarayonini amalga oshirishning mazmunli texnikasi.

O'rganish shunday amalga oshiriladiki, bilimlarni o'zlashtirish nafaqat yodlash asosida, balki ko'proq darajada bilimlarni kognitiv vazifalarni hal qilish jarayonida ongli ravishda qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar mavjud ma'lumotlardan mulohaza yuritishni va undan foydalanishni o'rganadilar. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida quyidagilar qo'llaniladi: muammoli savollar, dasturlashtirilgan topshiriqlar, bilimlarni tekshirish va mustahkamlash bosqichida kartalar bo'yicha farqlangan vazifalar, didaktik o'yinlar. Bularning hammasi didaktik material aqliy operatsiyalarni shakllantirish jarayonida har xil turdagi yordam (tashkil etish, rag'batlantirish, o'qitish) ko'rsatadi. Shunday qilib, biz o'qitish odatda bitta

emas, balki bir qancha usullarni, ularning kompleksini talab qiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Turli xil o'qitish usullari o'quvchilarning bilim faolligini oshiradi. Usullarning kombinatsiyasi o'quv materialini mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini eng yaxshi tarzda hisobga olish, bilimlarni o'zlashtirishning eng oqilona usullarini tanlash imkonini beradi. Faol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish asosida o'quvchining bilish imkoniyatlarini har tomonlama rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.— T.: O'qituvchi, 2004.
2. G.M.Anorqulova "Ta'lim texnologiyalari". T.:Innovatsiya-Ziyo. 2021-yil.
3. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "NOSIR" nashriyoti 2009.
4. O'.Asqarova, D.Muminova. O'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Namangan: 2019-y.